



Received: April 19, 2025
Accepted: May 20, 2025
Available online: May 25, 2025

Otabek Tilavoldiyev

Mustaqil izlanuvchi
Guliston davlat universiteti
Guliston, O‘zbekiston

Otabek Tilavoldiev

Independent Researcher
Gulistan State University
Gulistan, Uzbekistan
E-mail: otabektkh@gmail.com
ORCID iD: 0009-0001-7307-0064

FILOLOGIYA YO‘NALISHI TALABALARIDA INGLIZ TILI O‘QITISH JARAYONIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot-maqolada talabalar tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ishlarning holati va umuman ushbu masalaga bo‘lgan e‘tiborni mamlakatimiz OTMLari misolida o‘rganib chiqish maqsad qilib olingan. Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi: 1) mamlakatimizda 2016-yildan keyingi yillarda qabul qilingan ta‘lim, xususan, oliy ta‘limga oid hukumat hujjatlarida o‘quvchi va talaba yoshlar, bo‘lajak kadrlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga urg‘u berilganligini aniqlash; 2) ta‘lim tizimini isloh qilishga oid hukumat hujjatlari, ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doir vazifalar, tegishli idora va ta‘lim muassasalari darajasida o‘quv jarayoniga oid hujjatlar hamda modullar kesimida aks etganlik darajasiga baho berish; 3) universitetlarda faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarning talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid qarashlarini tadqiq qilish; 4) universitetlarda talabalar tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga sharoitning yaratilganligi darajasini o‘qituvchilar nuqtayi nazaridan o‘rganish.

2016-yildan keyin mamlakatimiz hukumati tomonidan qabul qilingan oliy ta‘lim siyosatiga oid farmon, qaror va konsepsiyalar va boshqa me‘yoriy hujjatlar bilan birga OTMLarida amalda bo‘lgan malaka talablari, o‘quv me‘yoriy hujjatlar mazmuni tahlili metodidan foydalanildi hamda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan uchta OTMning 56 nafar professor-o‘qituvchisi o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma to‘rt bo‘limdan iborat bo‘lib, quyidagi jihatlarini qamrab oldi: 1) tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga

ENHANCING CRITICAL THINKING IN PHILOLOGY STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH

ABSTRACT

This research article investigates initiatives for enhancing students' critical thinking skills and their emphasis in higher educational institutions within our nation. The study's objectives are: 1) to ascertain the emphasis on fostering critical thinking among students and prospective professionals in government education documents, particularly higher education, enacted post-2016; 2) to assess how tasks related to critical thinking development are represented in government documents on educational reform and in institutional teaching documents and modules; 3) to explore university instructors' perspectives on cultivating students' critical thinking skills; and 4) to evaluate, from instructors' viewpoint, the extent to which universities have established conditions conducive to nurturing critical thinking.

The study utilized content analysis of presidential decrees, government decisions, policy concepts, and other regulatory documents related to higher education adopted after 2016, alongside existing qualification requirements and curricular documents in universities. Additionally, a survey was conducted among 56 professors and instructors from three higher education institutions within our country. The survey comprised four sections, addressing the following aspects: 1) the availability of materials for developing critical thinking; 2) factors influencing the development of students' critical thinking; 3) the inclusion and institutionalization of critical thinking development in higher education programs and specialties; and 4) the practical implementation of critical thinking development by instructors. The survey results were analyzed using descriptive

oid materiallarning mavjudligi; 2) talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar; 3) OTMda va ta'lim yo'nalishlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazarda tutilganligi hamda shart-sharoitning yaratilganligi; 4) professor-o'qituvchilarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish amaliyoti. Xususan, so'rovnoma natijalari deskriptiv statistik usullar yordamida tahlilga tortildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2017-yildan keyin qabul qilingan hukumat qaror va farmonlarida, konseptual hujjatlarda oliy ta'lim mazmuniga talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yuqori darajada e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ushbu qaror va farmonlarning amaliy ijrosi sifatida OTMlardagi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari malaka talablarida hamda fan o'quv dasturlarida ham tanqidiy-tahliliy fikrlashni rivojlantirish masalalari ko'rsatib o'tilgan. Professor-o'qituvchilar bilan o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, OTMlarda talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga doir resurslarga, o'quv adabiyotlar, maxsus tayyorgarlik kurslariga hamda mazkur ko'nikmani rivojlantirishning maxsus metodikalariga ehtiyoj mavjud.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, oliy ta'lim, o'qitish metodikasi, ta'lim dasturlari, XXI asr ko'nikmalari, tahlil, sintez, xulosa chiqarish, ko'nikmalar, me'yoriy hujjatlar.

KIRISH

Ta'lim tizimlarida o'quvchilarning hamda talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish g'oyasi hamda ta'lim muassasalari o'quv dasturlari va rejalari mazmuni va maqsadiga singdirish masalasi 2000-yillar boshiga kelib yanada muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Masalan, AQShda 1930-yillardayoq J.V. Osborn ta'limning bosh maqsadi o'quvchilarda "fikrlash kuchi"ni shakllantirishga qaratilmog'i kerakligi haqidagi g'oyani [Osborne, 1932] ilgari suradi. Bu g'oya 20-asr boshlarida O'zbekistonda jadidchi mutafakkirlarning ishlarida ham o'z aksini topgan. Yana bir AQSh olimi H.Sigel "biz o'quvchilarimizga tanqidiy tarzda ta'lim bermog'imiz lozim, bundan o'zgacha tarzda ta'lim berishning o'zi xato" deya ta'kidlaydi [Siegel, 1980]. T. van Gelderga ko'ra, oliy ta'limning bosh maqsadi talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hisoblanadi [Gelder, 2005]. OTMlari ilm o'chog'i sifatida talabalarda turli sohalar bo'yicha bilimlar majmuini shakllantirishi va rivojlantirish kerakligini anglashi bilan birga ular talabalarni turli yo'nalishlarda murakkab tarzda, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashning falsafiy zaruratini ham anglab yetmog'i zarur. H.Sigelning ushbu fikrini qo'llab-quvvatlar ekan, P.E. Fashione OTMlari shunday ta'lim berishi kerakki, bunda "shaxslar yaxshi qarorlar qabul qilish orqali o'z kelajaklarini yaxshilay olishga qodir bo'lishi kerak"

statistical methods.

Government decisions and decrees, as well as conceptual documents adopted post-2017, emphasize developing students' critical thinking skills in higher education. The implementation of these policies is reflected in qualification requirements for undergraduate programs and academic curricula, where analytical and critical thinking development is explicitly addressed. Survey results from instructors indicate a need for resources, educational materials, training courses, and methodologies to effectively support students' critical thinking development in universities.

Key words: critical thinking, higher education, teaching methodology, educational programs, 21st century skills, analysis, synthesis, drawing conclusions, skills, regulatory documents.

[Facione, 2011] degan g'oyani ilgari suradi. O'tgan yillar davomida ko'plab G'arb mamlakatlari OTMLari o'z ta'lim dasturlari mazmuniga tanqidiy fikrlashni integratsiya qilish ustida ish olib bormoqda [Barnes, 2005; Elder, 2005]. Biroq shunga qaramay, ta'lim dasturlarini amaliyotga tatbiq etish, xususan, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodologiyasi, o'qitish usullari, qo'llab-quvvatlov va yakunda ta'lim mazmunidan kutilgan natijalarda farqlar mavjud.

Fikrlash va o'ylashga ma'lumotlarga ishlov berishning usuli sifatidagi qarash tarixan formal ta'limning yo'lga qo'yilishidan boshlab uning asosini tashkil qiluvchi asosiy maqsadlardan biri bo'lib kelgan. Ya'ni, formal ta'lim, u maktab ta'limi yoki universitet ta'limi bo'lishidan qat'i nazar, o'quvchi va talabalarda ma'lumotlarni eslab qolish, qayta ishlash va uzata bilishni o'rgatishga qaratilgan. Bunday ta'limda o'qituvchilarda har birdarsyakunida o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan masalalar, bilimlar majmui ro'yxati bo'lgan. O'rganish bo'lsa qisqa muddatli bo'lib, o'z ichiga asosan ma'lumotlarni eslab qolishga qaratilgan faoliyat turlarini olgan. Darsdagi asosiy e'tibor mazmunni o'zlashtirish va o'quvchi hamda talabalarining muayyan mavzu bo'yicha bilimini oshirishga qaratilgan. Tarix nuqtayi nazaridan o'qitishning ushbu an'anaviy maqsadlariga qaralsa, o'qitish metodlari nafaqat o'sha davrda mavjud talablarga mos balki samarali ham bo'lgan. Aniqroq qilib aytganda, o'tmishdagi jamiyat ehtiyojlari va umidlariga ta'lim maqsadlari, ularga erishish usullari va vositalari mos bo'lgan. Maktab yoki OTMLari bitiruvchilari soha bo'yicha keng ko'lamli bilimlar majmuiga ega bo'lgan holda o'qishni tamomlagan. Biroq hozirda biz yanada axborotlashgan davrda yashar ekanmiz va jamiyatlar hayotida ilgari o'z ko'lami va tabiatiga ko'ra hech qachon kuzatilmagan global, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolar avj olar ekan, o'quvchi va talabalarga ma'lumotlarni yodlash, esda saqlashga qaratilgan ta'lim yondashuvlari, metod va vositalari zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini to'laqonli qondira olmayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Endilikda ta'lim tizimlari, K.MakGinnes ta'biri bilan aytganda, ta'lim jarayonida miyaga axborotga ishlov beruvchi qurilma sifatida qarash emas balki tanqidiy va kreativ fikrlash quroli sifatida qarash va shu asosida o'quvchi va talabalarda fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga urg'u beruvchi modellarga o'tishi [McGuinness, 1993] lozim. Bu masala O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham aks etgan bo'lib, xususan, unda "...talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish..."ga [PF-5847-son, 2019] alohida urg'u beriladi.

G'arb olimlarining fikricha, ta'lim tizimlari tanqidiy fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashda izchil ijobiy natijalarga erisha olmayapti [Barbuto, 2000; Pithers & Soden, 2000; Burbach et al., 2004; del Bueno, 2005; Paul, 2005; Lizzio & Wilson, 2007]. R.Polga ko'ra, bunday salbiy natijalarning ikkita asosiy sababi mavjud: 1) o'qituvchilarning ko'pchiligi tanqidiy fikrlash tushunchasining mohiyatini tushunishmaydi, ya'ni o'qituvchi o'zi tugal tushunchaga ega bo'lmagan konseptni o'quvchilarga o'rgata olmaydi; 2) ko'pchilik ta'lim tizimlarida hali hanuz an'anaviy

o'qitish yondashuv va metodlaridan foydalaniladi; tadqiqotlarga ko'ra esa, an'anaviy o'qitish metodlariga tayangan o'quv jarayoni o'quvchi yoshlarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojiga hissa qo'shmaydi [Paul, 2005]. An'anaviy o'qitish metodlari talabalarni jarayonga hissiy emotsional darajada jalb qilmaydi va o'z qarash va taxminlarini ko'zdan kechirish imkonini bermaydi. Bunday talabalarning o'z-o'zini tahlil qilish muhiti mavjud bo'lmagan sharoitda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish amrimahol sanaladi. Ma'no hosil qilish, yaratishning yangi darajasiga o'tishdan oldin talabalar egosentrik komponentdan o'tishlari lozim. Keng fikrlashning yangi darajasiga o'tishdan oldin talabalar egosentrik dunyoqarashning kamchilik va zaif tomonlarini anglab yetishlari lozim. Ta'lim muassasalari tanqidiy fikrlovchi shaxslarni tayyorlab bera olmayotgan ekan, demak, mavjud o'quv dasturlari va rejalarini qayta ko'rib chiqishga zarurat mavjud.

Ushbu tadqiqot vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, uzoq yillar davomida ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi ko'plab tadqiqotlar obyekti sanalgan. Xususan, Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanganlik darajasi bo'yicha 2015-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Buyuk Britaniya universitetlarida tahsil oluvchi xorijiy talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalari yetishmaydi. D.F. Xalpern, M.Lipman, L.Tsui fikriga ko'ra, bu talabalarning "yuqori darajadagi kognitiv qobiliyat"lari yetishmasiligida tanqidiy fikrlashni "past darajadagi intellektual qobiliyatlar", ya'ni tushunish, eslab qolish va qo'llashdan farqlay olmasliklari bilan izohlanadi [Lipman, 1988; Tsui, 2002; Halpern, 2013;]. Xorijiy talabalar qo'yilgan savollarga tahliliy javob berishda past natijalarga erishishadi va ular o'z nuqtayi nazariga ega bo'lish nima ekanligini yaxshi anlay olmaydi hamda mavjud ma'lumotlarga analitik yondashgan holda ulardan yangi ma'no yarata olishmaydi.

O'quvchi va talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish barcha ta'lim bosqichlarida ta'limiy maqsad sifatida namoyon bo'ladi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish boshlang'ich, umumiy o'rta hamda oliy ta'lim dastur va o'quv rejaları mazmuniga singdirilgan bo'lishi lozim. Biroq ayni ta'limiy maqsadlar qanday talqin qilinishi va ro'yobga chiqarilishida nomutanosibliklar uchrashi hamda izchil yondashuv bo'lmasligi mumkin. Ayrim ta'lim muassasalarida tanqidiy fikrlash alohida fan sifatida o'qitilsa, ayrimlarida ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish boshqa fanlar mazmuniga singdirilgan bo'lishi mumkin. Jumladan, ingliz tilini o'qitishda ham tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish turlicha amalga oshirilishi mumkin. Bunda talabalarga o'qish, yozish, gapirish, tinglab tushunish ko'nikmalari alohida yoki integrallashgan holda o'qitilishi mumkin va albatta, bunda talabalarning fikrlash ko'nikmalari ham inobatga olingan bo'lishi lozim. O'qituvchilar o'qish va yozish ko'nikmalari o'rtasidagi bog'liqlikka urg'u berish uchun mazkur ko'nikma va malakalarni uyg'unlashtiruvchi baholash strategiyalaridan foydalanishi ham mumkin. Ayni yondashuvlar asosan talabalarda o'rganilayotgan tilga taalluqli ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishiga qaramay, o'qituvchilar bu ko'nikma va malakalar mashq qiluvchi vazifa

va topshiriqlarda qay ko‘lamda fikrlashi kerakligini inobatga olishlari lozim bo‘ladi. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat xorijiy tillar, balki barcha fanlarni o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad bo‘lishi ta’kidlanadi. Biroq bunday maqsadga erishishdagi asosiy to‘siqlardan biri bu o‘qituvchilarning tanqidiy fikrlash haqida umumiy hamda izchil tushunchaga ega bo‘lmashliklari hisoblanadi [Kennedy et al., 1991]. A.Jons ushbu to‘siqqa quyidagicha izoh beradi: “Tanqidiy fikrlash akademik diskurs sifatida soha vakillari tomonidan tushuniladi, biroq ko‘p hollarda ular boshqalarga uning nima ekanligini tushuntirib bera olishmaydi” [Jones, 2004; 172].

Tanqidiy fikrlashni o‘qitish va o‘rgatish bo‘yicha hamda uni ta’lim dasturi va o‘quv rejasi mazmuniga singdirishning turli usul va yondashuvlari taklif etilgan. Bu yondashuvlar asosan tanqidiy fikrlashni alohida fan sifatida o‘qitish yoki tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni muayyan fanlar mazmuniga singdirilishi lozim bo‘lgan jarayon sifatida ekanligida namoyon bo‘ladi [Thompson, 2011]. K.Tompsonga ko‘ra, tanqidiy fikrlashni alohida fan sifatida o‘qitish maqsadga muvofiqdir, bu orqali o‘qituvchilarga tanqidiy fikrlashni jarayon sifatida anglash imkoni beriladi. P.Ikuenobe bunday yondashuvni quyidagicha asoslaydi: “Agar samarali fikrlashga erishmoqchi bo‘lsang, avvalo fikrlash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillarni hamda uni tashkil qiluvchi asosiy tarkibiy qismlarni aniqlab olish zarur” [Ikuenobe, 2001; 332]. Fikrlashning asosiy elementlariga esa savol, ma’lumot, talqin va xulosa, tushunchalar, taxminlar, sabab va oqibatlar hamda nuqtayi nazarni kiritishimiz mumkin. P.Ikuenobe, shuningdek, o‘quvchilar argument tushunchasini tushunishlari, tezislarni farqlay olishlari, sabab va oqibat munosabatlari o‘rtasidagi farqni tushuntira olishlari hamda har bir argument asosini tashkil qiluvchi tamoyillarni izohlay olishlari lozim [Ikuenobe, 2001]. Shu bilan birga, ular argumentlarni Venn diagrammasi kabi vositalarni qo‘llagan holda tahlil qila olishlari lozim.

Tanqidiy fikrlash jarayon sifatida pedagogikada juda keng ommalashgan nazariyalardan biri – o‘rganishning konstruktivizm nazariyasi bilan bog‘liq. Biroq P.Ikuenobe tomonidan taklif etilgan, tanqidiy fikrlashni bosqichma-bosqich rivojlantirish yondashuvi, o‘z navbatida, bixeviorizm nazariyasining amaliy tatbiqi sanalishi ham mumkin. Konstruktivizm ko‘proq o‘quvchi, talaba shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlari orqali ro‘yobga chiqarilsa, bixeviorizm asosan o‘qituvchining roli asosiy hisoblanadi. O‘quvchilar bunda passiv o‘rganuvchilar rolini bajarishadi. Bundan kelib chiqadiki, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishda ham o‘quvchi, ham o‘qituvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlaridan foydalanish mumkin.

Mazkur tadqiqotni o‘tkazishning asosiy maqsadi sifatida keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarning natijasini mamlakatimizda faoliyat yurituvchi filologik OTMlardagi ingliz tiliga ixtisoslashgan bakalavriatura ta’lim yo‘nalishlari misolida tadqiq qilish hisoblanadi. Tadqiqot maqsadiga binoan quyidagi tadqiqot savollari belgilab olindi:

1. *2016-yildan keyingi yillarda mamlakatimizda qabul qilingan ta’lim, xususan, oliy ta’limga oid hukumat hujjatlarida o‘quvchi va talaba yoshlar hamda*

bo'lajak kadrlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasiga qay darajada e'tibor qaratilgan?

2. Ta'lim tizimini isloh qilishga oid hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bilan bog'liq talablar tegishli idoralar hamda universitetlar darajasidagi o'quv jarayoni hujjatlari va modullar tarkibida qanchalik darajada o'z aksini topgan?

3. OTMlarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doir qarashlari va amaliy tajribalari qanday?

4. Professor-o'qituvchilarning fikriga ko'ra, OMTlarida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar darajasi qanday?

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot savollariga adekvat tarzda murojaat qilish hamda javob berish maqsadida tadqiqot davomida bir qator metodlardan foydalanildi. Avvalo, mamlakatimizda so'nggi yillarda, xususan, 2016-yildan keyin oliy ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar, oliy ta'lim mazmunini ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan holda takomillashtirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlar, shuningdek, OTMlarining, ayniqsa xorijiy tillar bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi yo'nalishlari uchun mo'ljallangan ta'lim dastur va rejalari asosida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga qanchalik e'tibor qaratilayotganini aniqlash tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Shu bois tadqiqotimiz doirasida mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan quyidagi me'yoriy hujjatlar, amaliyotga tatbiq etilgan malaka talablari, fan namunaviy va ishchi dasturlari tahlilga tortildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Tahlilga tortilgan me'yoriy hujjatlar va fan dasturlari

№	Hujjat nomi	Sana	Tasdiqlovchi organ
1.	O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni [O'RQ-637-son, 2020]	23.09.2020	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni [PF-5847-son, 2019]	08.10.2019	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori [PQ-2909-son, 2017]	20.04.2017	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori [PQ-345-son, 2024]	30.09.2024	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
5.	O'zbekiston Respublikasining milliy malakalar ramkasi	30.09.2024	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

6.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-157-sonli qarori [VMQ-157-son, 2024]	27.03.2024	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini
7.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” O‘zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 35-2021-sonli buyrug‘i	19.10.2021	O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
8.	60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablari	18.08.2021	O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
9.	60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablari	07.08.2023	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
10.	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (roman-german tillari) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talablari	07.08.2023	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
11.	60110900 – Xorijiy til va adabiyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi malaka talabi	25.06.2024	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
12.	70230101 – Lingvistika magistratura mutaxassisligi malaka talablari	01.08.2024	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Tadqiqotning mazkur bosqichida mamlakatimizning ta’limga oid qonunlari, qarorlari, malaka talablari hamda ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan malaka talablari va o‘quv rejalarini tahlilga tortish ishlari amalga oshirildi. Hujjatlarning aksariyati 2017–2024-yillarda qabul qilingan bo‘lib, ular O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi so‘nggi islohotlar, ta’lim dasturlari va malaka talablarini yetakchi xorijiy tajribalar, standartlarga asoslangan holda takomillashtirishga qaratilgan.

Mazkur o‘quv-me‘yoriy hujjatlarni tanlashimizning asosiy sababi – ular oliy ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid siyosatlar, normativ asoslar va amaliy talablarni o‘zida aks ettirgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni [O‘RQ-637-son, 2020], “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” [PF-5847-son, 2019] hamda malaka talablari va DTSlari kabi hujjatlar ta’lim sohasidagi islohotlarning asosiy strategik yo‘nalishlari, talabalarda eng zarur ko‘nikmalar, jumladan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha yuqori darajada belgilangan maqsad va vazifalarni ko‘rsatib beradi. Shuningdek, “Xorijiy til va adabiyoti” ta’lim yo‘nalishlari, bakalavriatura hamda magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari kabi aniq yo‘nalishlarga oid hujjatlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan fan dasturlari, mazmun va ta’lim jarayoni talablarini o‘rganishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning ushbu bosqichida huquqiy-me‘yoriy, o‘quv-me‘yoriy hujjatlarni o‘rganishda mazmun tahlili (content analysis) metodidan foydalanildi. Mazkur tadqiqot metodi hujjatlarning ichki mazmunini tizimli o‘rganish va tahlil etish orqali

tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga oid talab va yondashuvlarni aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini tushunish va mavjud tendensiyalarni yoritishga sharoit yaratdi [Novikov & Novikov, 2010; Kornilova & Smirnov, 2011]. Ayni metod mavjud ma'lumotlarni tadqiq qilish va o'rganishga asoslanadi hamda tadqiqotchiga nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga yo'l ochadi. Bu orqali ta'lim sohasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar tahlili asosida ta'lim maqsadlari, dasturlari va malaka talablarida aks etgan bilim, ko'nikma va malakalar haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin [Bowen, 2009]. Shu bilan birga, hujjat tahlili tadqiqotning ishonchligini oshirish hamda nazariy asoslanganligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotimizning keyingi bosqichlarida mamlakatimizdagi OTMlarida faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilar tomonidan joriy etilayotgan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga doir amaliyot va qarashlarini tadqiq qilish maqsadida pedagogik tajriba-sinov maydonlari – Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti, Samarqand davlat chet tillar instituti hamda Guliston davlat pedagogika institutida "Xorijiy tillar va adabiyoti" bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi 56 nafar professor-o'qituvchilar orasida anketa (so'rovnoma) o'tkazildi.

Mazkur so'rovnomada berilgan savollarni tuzishda tadqiqot davomida amalga oshirilgan ikkilamchi ma'lumotlar tahlili hamda mazkur yo'nalishlarda xorijiy mualliflar tomonidan o'tkazilgan tajribalar va tadqiqot hisobotlaridan foydalanildi. So'rovnoma OTMlarida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan 4 ta aspektni o'z ichiga qamrab oldi: 1) tanqidiy fikrlashni rivojdantirishga oid materiallarning mavjudligi; 2) talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojantirishga ta'sir etuvchi omillar; 3) OTMlarida va ta'lim yo'nalishlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazarda tutilganligi va shart-sharoitning yaratilganligi; 4) professor-o'qituvchilarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish amaliyoti.

So'rovnomada Likert'ning 5 darajali shkalasidan foydalanildi. So'rovnomaning ichki izchilligi va ishonchlilik darajasi "Kronbax alfasi" testi yordamida tekshirildi hamda ishonchlilik darajasi kafolatlandi. So'rovnoma natijalarini tahlil qilishda asosan deskriptiv statistik usuldan foydalanildi (o'rtacha ko'rsatkich, moda va standart og'ish). O'rtacha ko'rsatkich, moda va standart og'ish kabi deskriptiv statistika usullari ta'lim tadqiqotlarida muhim vositalardan hisoblanadi. Ular tadqiqotchiga ma'lumotlarni umumlashtirish, ma'lum bir guruh ichidagi javoblar namunaviylikini aniqlash va ularning o'rtacha qiymat atrofida qanday darajada farq qilishini tushunish imkoniyatini beradi [Fraenkel et al., 2012].

So'rov natijalarida o'rtacha ko'rsatkich (Mean) barcha respondentlarning javoblari yig'indisini ularning soniga bo'lib hisoblanadi. U respondentlarning umumiy yondashuvi qay darajada ijobiy yoki salbiy ekanligini ko'rsatadi. Misol uchun, 3.53 o'rtacha ko'rsatkichi respondentlarning aksariyati ma'lum savolga nisbatan ijobiy munosabatda ekanliklarini bildiradi. Quyida so'rov natijalarida keltirilgan standart og'ish (Standard Deviation) javoblarning o'rtacha qiymat atrofida qay darajada tarqalganini ko'rsatadi. Standart og'ish qancha yuqori bo'lsa, respondentlar o'rtasida fikrlar xilma-xilligini, qancha past bo'lsa respondentlar nisbatan yakdil qarashga egaligini anglatadi. Misol uchun 0.90 standart og'ish javoblar bir-biriga nisbatan

yaqin ekanligini ko'rsatadi, 0.98 standart og'ish bo'lsa, o'z navbatida, javoblar biroz ko'proq farq qilayotganini bildirishi mumkin. Keltirilgan jadvallarda berilgan moda ko'rsatkichi so'rovda eng ko'p takrorlangan javobni ko'rsatadi. U respondentlarning qaysi javobni eng ko'p tanlaganini ko'rsatadi. Misol uchun, agar moda 4 bo'lsa, respondentlarning katta qismi berilgan fikrga "Qo'shilaman" degan javobni tanlashgan bo'ladi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

O'zbekiston Respublikasida ta'lim va oliy ta'lim sohasidagi qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlarining mazmuniy tahlili natijalariga ko'ra, 2017-yildan boshlab tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilganligi kuzatildi (2-jadvalga qarang). Mazkur davrda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan hujjatlarda asosiy e'tibor ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

2-jadval.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlarida tanqidiy fikrlashga e'tibor qaratilganlik darajasi

№	Hujjat raqami va nomi	Kuchga kirish sanasi	Hujjat turi	Tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga e'tibor darajasi va mazmuni
1.	O'RQ-637: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun [O'RQ-637-son, 2020]	24.09.2020	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	Yuqori: ta'lim mazmunida tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish, tahlil va baholash ko'nikmalarini shakllantirishga katta e'tibor berilgan
2.	PF-5847: O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida [PF-5847-son, 2019]	09.10.2019	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni	Yuqori: o'quvchilar va talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, ijodiy va tanqidiy yondashuvlarni rivojlantirishga urg'u berilgan
2.	PQ-2909: Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida [PQ-2909-son, 2017]	21.04.2017	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori	O'rtacha: ta'lim sifati va mazmunini yaxshilashda innovatsion texnologiyalar va tanqidiy tahlil qilishga e'tibor berilgan, lekin batafsil emas
4.	PQ-345: O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida [PQ-345-son, 2024]	05.10.2024	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori	Yuqori: mehnat bozori va ta'lim integratsiyasi, kasbiy malaka rivojida tanqidiy va tahliliy ko'nikmalarga urg'u berilgan

Masalan, 2020-yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun [O'RQ-637-son, 2020] va 2019-yilda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da [PF-5847-son, 2019] ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan vazifalar ko'rsatib o'tilgan. Bu hujjatlarda ta'lim sifatini

oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Davlat siyosatining ta'lim sohasidagi ahamiyatini ta'kidlovchi tadqiqotlarda ta'lim islohotlarining samaradorligi ko'p jihatdan davlat tomonidan belgilangan strategiya va dasturlarga bog'liq ekani ko'rsatiladi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistondagi ta'lim sohasidagi islohotlar ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

2-jadvalda keltirilgan hujjatlar tahlili, shuningdek, yana bir qiziq faktni yuzaga chiqardi. E'tibor qiladigan bo'lsak, mamlakatimiz ta'lim tizimida tanqidiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan diqqat-e'tibor, ayniqsa, 2017-yildan keyingi yillarda qabul qilingan hujjatlarda o'z aksini topgan.

Tadqiqot davomida, shu bilan birga, bakalvriat ta'lim yo'nalishlari malaka talablari ham batafsil tahlilga tortildi. Olingan natijalarga ko'ra, so'nggi yillarda bakalvriat ta'limida asosiy e'tibor talaba yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilayotganini ko'rishimiz mumkin. 3-jadvalda ko'rsatilgan bakalvriat mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablari 2022-yildan boshlab 2024-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida yangilanib, tanqidiy fikrlashga nisbatan yuqori e'tibor darajasida tayyorlanganligi kuzatildi (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

Bakalvriat ta'lim yo'nalishlari malaka talablarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilganligi

№	Hujjat nomi va raqami	Sanasi	Tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga e'tibor darajasi va mazmuni
1.	60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)	2022	Yuqori: pedagogik, tadqiqot va metodik faoliyatlarda mustaqil tahlil qilish, muammolarni aniqlash va yechim topish ko'nikmalariga e'tibor berilgan
2.	5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)	2023	Yuqori: interpretatsiya metodlari, matn tahlili, uslubiy vositalar orqali tahliliy va mustaqil fikrlash ko'nikmalariga e'tibor qaratilgan
3.	MT_60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)	2023	Aniq emas: hujjatda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishi bo'yicha yetarlicha ma'lumot yo'q
4.	60110900 – Xorijiy til va adabiyoti	2024	Yuqori: kognitiv faollik, mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy tahlil qilish va baholash ko'nikmalari aniq ta'kidlangan
5.	60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german tillari)	2023	Yuqori: mustaqil ilmiy-ijodiy izlanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metodik va tahliliy ko'nikmalarga katta e'tibor berilgan

Jumladan, “Filologiya va tillarni o'qitish”, “Xorijiy til va adabiyoti” (ingliz, koreys, nemis tillari) kabi yo'nalishlarda malaka talablari hujjatlarida asosan yuqori darajada tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor berilgani aniqlandi. Bunda interpretatsiya, tahlil qilish va baholashga oid metodlar, pedagogik, psixologik va kognitiv yondashuvlar o'quv reja va dasturlarining asosiy komponentlari sifatida belgilangan. Bu natijalar ta'lim jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning dolzarbligini ta'kidlovchi pedagogik adabiyotlarda aks ettirilgan fikrlar bilan hamohangdir. Aynan shu ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyoj yuqori malakali,

mustaqil fikrlay oladigan kadrlarni tayyorlashning asosiy tamoyillarini belgilab beradi. Zero, talabalarda tahliliy fikrlashni rivojlantiruvchi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy elementlaridan biri sanaladi [Zeer, 2021].

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ba'zi hujjatlarda tanqidiy fikrlashning aniq darajasi va metodik yo'nalishlari yuqori darajada bo'lsa, ayrimlarida esa ushbu ko'nikmalarga o'rta darajadagi yoki nisbatan umumiy e'tibor berilganligini qayd etishimiz mumkin. Bu holat, o'z navbatida, OTMlarda talabalarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini tizimli rivojlantirish uchun aniq va izchillikka ega yondashuvlar ishlab chiqish va joriy etishning zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu o'rinda tanqidiy fikrlashga qaratilgan metodologik modellar va standartlar, ularni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish mexanizmlari borasidagi rus pedagogik va psixologik adabiyotlariga ham murojaat qilish lozim [Klarin, 2016]. Shu bilan birgalikda, ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda talabalarda tanqidiy mushohada yuritish ko'nikmasini rivojlantirishga ko'maklashuvchi pedagogik muhitni yaratish muhim vazifalardan biriga aylanishi lozim.

OTMlari tomonidan ishlab chiqilayotgan malaka talablari hujjatlarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini yuqori darajada shakllantirishga e'tibor qaratilayotgani ijobiy holat sifatida e'tirof etilishi lozim. Biroq mavjud yo'nalishlardagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning innovatsion metod va yondashuvlarini amaliyotga joriy etish uchun tizimli va nazariy jihatdan asoslangan yondashuvga ehtiyoj mavjud.

Tadqiqot davomida "Xorijiy til va adabiyoti", "Filologiya va tillarni o'qitish" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari umumkasbiy fanlari mazmun-mohiyatida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qay darajada e'tibor qaratilganligi ham tahlilga tortildi (4-jadvalga qarang).

4-jadval.

Fan o'quv dasturlarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan e'tibor darajasi

№	Hujjat nomi va raqami	Sanasi	Tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga e'tibor darajasi va mazmuni
1.	Mamlakatshunoslik fanining o'quv dasturi	2024	Yuqori: ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga tanqidiy yondashuv va ilmiy dunyoqarash shakllantirishga e'tibor berilgan
2.	Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti (Filologiya)	2024	Yuqori: adabiyot asarlarini chuqur tahlil qilish orqali tanqidiy fikrlash va analitik qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor berilgan
3.	Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti (Tarjima)	2024	Yuqori: adabiy asarlarning mazmuni va estetik qiymatini tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor berilgan
4.	Amaliy tarjima fanining o'quv dasturi	2024	Yuqori: matnlarni leksik, semantik va stilistik jihatdan tanqidiy tahlil qilish, transformatsiya usullari orqali muammolarni hal qilishga e'tibor berilgan
5.	Matbuot tili fanining o'quv dasturi	2024	Yuqori: OAVlari matnlarini chuqur tahlil qilish, interpretatsiyalash va sharhlash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga e'tibor berilgan

6.	Amaliy grammatika va fonetika fanining o'quv dasturi	2024	O'rtacha: grammatik va fonetik strukturalarni tanqidiy va tahliliy yondashuv bilan o'rgatish maqsadi mavjud, lekin tanqidiy fikrlash batafsil ta'kidlanmagan
----	--	------	---

Tahlilga tortilgan fan dasturlarining barchasi 2024-yilda tasdiqlangan hujjatlar bo'lib, "Amaliy grammatika va fonetika" fanidan tashqari, ularning barchasida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mavzular qamrab olinganligini, talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda yuqori darajada fikrlash kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar va vazifalar nazarda tutilganligini ko'rishimiz mumkin.

5-jadval.

"O'qish va yozish amaliyoti" fanining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilganligi

№	Fan dasturi nomi	Sanasi	OTM	Tanqidiy fikrlash bo'yicha mazmun
1.	O'qish va yozish amaliyoti	2024	Guliston davlat universiteti	matnlarni chuqur tahlil qilish, turli yozish texnikalari, grafiklar va diagrammalar bilan ishlash, loyiha asosida ta'lim orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan
2.	O'qish va yozish amaliyoti	2023	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti	tanqidiy va ijodiy fikrlash, mustaqil axborot qidirish va tahlil qilish, akademik esse yozish va ilmiy-tadqiqot malakasini shakllantirish
3.	Chet tilda yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish	2023	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti	tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun klaster, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, diskussiya va rolli o'yinlar kabi metodlarga e'tibor qaratilgan
4.	O'qish va yozish amaliyoti	2024	Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti	muammolarga yechim taklif qilish, argumentativ esselar, bahs-munozaralar, refleksiv usullar (tahlil, qiyoslash, sintez) orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan

5-jadvalda fan dasturlari mazmuni tahlili keltirilgan bo'lib, unda talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv dasturlari ko'rib chiqilgan. Jadvalda Guliston davlat universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti va Namangan davlat universitetlarida 2023/2024-o'quv yili uchun ishlab chiqilgan fan dasturlarining maqsad va mazmuni yoritilgan.

5-jadvada berilgan ma'lumotlarga ko'ra, "O'qish va yozish amaliyoti" fani talaba-yoshlarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Masalan, Guliston davlat universiteti dasturida matnlarni tahlil qilish, grafiklar va diagrammalar asosida axborotni tushunish hamda muammolarni hal qilish yo'llari tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy usullari sifatida tanlangan. Bu yondashuv P.E. Fashione tomonidan ta'riflangan tanqidiy fikrlashning tahliliy va baholash ko'nikmalariga [Facione, 2011] to'liq mos keladi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti fan dasturida akademik esse yozish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu S.Kottrell tomonidan tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida yozish amaliyotining ahamiyati haqida ta'kidlangan fikrlar

[Cottrell, 2017] bilan uyg'un.


Shuningdek, Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti fan dasturida bahs-munozara, reflektiv mushohada yuritish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlardan foydalanishga urg'u berilgan. Bu esa D.F. Xalpern tomonidan ta'kidlangan munozara va mushohada orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish va mustahkamlashning samaradorligi haqidagi qarashlar [Halpern, 2013] bilan uyg'unlikka ega.

Tahlillarimiz natijalariga ko'ra, mamlakatimizdagi OTMlarda ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan fan dasturlari talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning turli xil shakl, metod va yondashuvlarini qamrab olgan va mavjud ilmiy adabiyotlardagi qarashlarga hamohangdir.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari tanlangan OTMlarda talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan va professor-o'qituvchilar tomonidan qo'llanilayotgan amaliyotlarni batafsil o'rganish imkonini berdi. O'tkazilgan so'rovnomada uchta OTMning 56 nafar professor-o'qituvchilari ishtirok etdi. Ishtirok etganlarning 41,1% oliy ta'limda 5 yildan kam ish tajribasiga ega bo'lsa, 11% dan biroz ziyodrog'i 20 yildan ko'proq ish tajriga ega ekanliklarini ta'kidlashgan (1-rasmga qarang).

1-rasm.

Respondentlarning oliy ta'limdagi ish tajribasi (yillar kesimida)



So'rovnomada keltirilgan birinchi aspekt bu OTMda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan materiallarning mavjudligini aniqlashtiruvchi savollardan iborat bo'ldi (6-jadvalga qarang). Zero, R.Pol va L.Elderga ko'ra, kutubxonalar, raqamli vositalar va o'quv materiallari kabi turli va sifatli akademik resurslarga ega bo'lish talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun juda muhim ahamiyatga ega. Zero, ta'lim muassasalari buning uchun yetarli qo'llab-quvvatlovni ta'minlay olmasa, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar o'z samarasini bermasligi mumkin [Paul & Elder, 2006].

So‘rovnomadagi ushbu savollar to‘plamiga berilgan javoblardan ko‘rinib turibdiki, unda ishtirok etganlarning deyarli barchasi asosan “Qo‘shilaman” javobini tanlagan, ya‘ni respondentlar talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda zarur bo‘lgan resurslarga ega va ushbu resurslarning ahamiyatini yuqori baholashadi. Faqatgina ayrim hollarda respondentlar o‘zlari faoliyat yuritayotgan OTMlarining Axborot-resurs markazida yetarli adabiyotlar, darslik va qo‘llanmalar mavjud emas degan fikrga yaqin javobni bildirib o‘tishgan (6-jadvalga qarang).

6-jadval.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid materiallarning mavjudligi

№	Savollar	Standart og‘ish	O‘rtacha ko‘rsatkich	Moda
1.	Universitetdagi o‘qituvchilar tanqidiy fikrlashni samarali o‘rgatish uchun yetarli tayyorgarlik va resurslarga egadirlar.	0,92	3,21	3
2.	O‘qitish jarayoniga texnologiyalarni integratsiya etish talabalar uchun tanqidiy fikrlash imkoniyatlarini oshiradi.	0,98	3,48	4
3.	Mening universitetimdagi Axborot-resurs markazida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga bag‘ishlangan yetarli adabiyotlar, masalan, darsliklar, qo‘llanmalar va uslubiy ko‘rsatmalar mavjud.	0,95	2,94	3
4.	Talabalar tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid turli xil materiallardan foydalanish imkoniyatiga egaman.	0,90	3,53	4
Aspekt bo‘yicha jami o‘rtacha ko‘rsatkich			3,31	

Izoh: 5 – To‘liq qo‘shilaman; 4 – Qo‘shilaman; 3 – Qo‘shilaman ham, qo‘shilmayman ham; 2 – Qo‘shilmayman; 1 – Umuman qo‘shilmayman.

So‘rovnomaning navbatdagi aspekti professor-o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar va ularning ustuvorlik darajasiga oid savollarni o‘z ichiga oldi (7-jadvalga qarang).

7-jadval.

Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar

№	Savollar	Standart og‘ish	O‘rtacha ko‘rsatkich	Moda
1.	Vaqt	0.70	3.96	4
2.	Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘quv dasturining mosligi	0.83	3.85	4
3.	Tanqidiy fikrlashni o‘rgatish uchun resurslarning yetarli emasligi	0.99	3.51	4
4.	Men tanqidiy fikrlashni qanday o‘rgatishni bilmayman	1.22	2.91	3
5.	Men tanqidiy fikrlash nima ekanligini aniq bilmayman	1.44	2.85	2
6.	Men o‘z tayyorgarligim davomida tanqidiy fikrlashga o‘rgatilmaganman	1.24	3.10	3
Aspekt bo‘yicha jami o‘rtacha ko‘rsatkich			3,36	

Izoh: 5 – To‘liq qo‘shilaman; 4 – Qo‘shilaman; 3 – Qo‘shilaman ham, qo‘shilmayman ham; 2 – Qo‘shilmayman; 1 – Umuman qo‘shilmayman.

Javoblarga ko‘ra, vaqt yetishmasligi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘quv dasturining mosligi hamda tanqidiy fikrlashni o‘rgatish uchun resurslarning yetarli emasligi talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta‘sir ko‘rsatuvchi eng muhim omillar sanaladi. Bunday qarash ikkilamchi materiallar va ilmiy-tadqiqotlarda keltirilgan najjarlar bilan o‘xshash. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish tez amalga oshadigan faoliyat emas, balki vaqt, muntazam mashqlar va mulohazali yondashuvni talab qiladigan murakkab va izchil jarayondir [Facione, 2011]. Shuningdek, tanqidiy fikrlashni o‘rgatish bu uzoq muddatli sa‘y-harakatlarni talab qiladigan jarayon bo‘lib, har bir bosqichda talabalarni mustaqil fikrlashga undash va ularning fikriy faolligini muntazam rag‘batlantirib borish zarur [Brookfield, 2012] ekanligiga to‘liq mos keladi.

So‘rovnomaning ayni bandida keltirilgan savollarga berilgan javoblarning yana bir qiziq tomoni – aksariyat o‘qituvchilarning “Men o‘z tayyorgarligim davomida tanqidiy fikrlashga o‘rgatilmaganman” degan qarashga qo‘shilishi bo‘ldi. Bu holat ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan qarashlarga hamohang bo‘lib, qator ta‘limshunos olimlarning ta‘kidlashicha, o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarlik jarayonida tanqidiy fikrlash tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va bu ko‘nikmalarni shakllantirishga doir yetarli bilim va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lmaydilar [Bailin et al., 1999; Zohar, 1999; Abrami et al., 2015].

So‘rovnomaning keyingi savollarida respondentlardan OTMlari ta‘lim yo‘nalishlari me‘yoriy hujjatlarida, namunaviy dastur, fan dasturi va ishchi dasturlarida, o‘quv-uslubiy adabiyotlarda talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazarda tutilganligiga oid fikr va mulohozalari so‘raldi. Mazkur savollarga berilgan javoblarga ko‘ra, so‘rovnoma o‘tkazilgan OTMlarida baholash amaliyoti va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘rtasida aniq muvofiqlik mavjud hamda joriy hujjatlar, masalan, fan dasturlarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish yetarli darajada ustuvor deb hisoblanadi (8-jadvalga qarang).

8-jadval.

OTMlarida va ta‘lim yo‘nalishlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazarda tutilganligi va shart-sharoitning yaratilganligi

№	Savollar	Standart og‘ish	O‘rtacha ko‘rsatkich	Moda
1.	Men dars beradigan kursda talabalarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yetarli e‘tibor qaratilgan.	0.92	3.21	3
2.	Joriy kurs hujjatlari, masalan, o‘quv dasturi va sillabuslar, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni yetarli darajada ustuvor deb hisoblaydi.	0.90	3.48	4
3.	Institutsional siyosatlar fanlararo yo‘nalishlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi.	0.96	2.94	3
4.	Talabalar tanqidiy fikrlash faoliyatlarida ham dars jarayonida, ham darsdan tashqari faol ishtirok etishadi.	0.91	3.53	4
5.	Baholash amaliyoti va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘rtasida aniq muvofiqlik mavjud.	0.71	3.96	4

6.	Tanqidiy fikrlash universitet darajasida o'qitiladigan barcha fanlarga joriy etilmog'i lozim.	0.84	3.85	4
7.	Tanqidiy fikrlash alohida fan sifatida o'qitilishi kerak.	1.00	3.51	4
	Aspekt bo'yicha jami o'rtacha ko'rsatkich		3,49	

Izoh: 5 – To'liq qo'shilaman; 4 – Qo'shilaman; 3 – Qo'shilaman ham, qo'shilmayman ham; 2 – Qo'shilmayman; 1 – Umuman qo'shilmayman.

Shu bilan birga, aksariyat respondentlarning fikriga ko'ra, tanqidiy fikrlash OTM darajasida o'qitiladigan barcha fanlarga joriy etilmog'i lozim hamda tanqidiy fikrlash alohida fan sifatida o'qitilishi kerak. Bu qarash M.Devising qarashi bilan hamohang bo'lib, tanqidiy fikrlashni o'quv rejalariga singdirish uning qo'llanilishi va dolzarbligini ta'minlaydi, biroq uning nazariy asoslarini tizimli o'rgatish uchun alohida darslar kerak" [Davies, 2006; 182].

Umuman olganda, mazkur so'rovnoma o'tkazilgan OTMlarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish institutsional ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, buni professor-o'qituvchilarning so'rovnomada bildirgan izohlaridan ham bilishimiz mumkin.

So'rovnomaning keyingi savollarida respondentlardan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda talabalarining qanday ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi haqida savollar so'raldi (9-jadvalga qarang). Ushbu savollarga respondentlar tomonidan berilgan javoblardan bilishimiz mumkinki, o'qituvchilar talabalarni aniq javoblar berishga, mantiqiy javoblar izlashga, ma'lumotlarni tahlil qilish, qo'llash va baholash kabi yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini ishlatishni talab qiluvchi savollar bilan murojaat qilishga hamda o'rta tashlangan muammolarni boshqa talabalar yoki guruh bilan muhokama qilishga undashga alohida e'tibor qaratishadi.

9-jadval.

Professor-o'qituvchilarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish amaliyoti

№	Savollar	Standart og'ish	O'rtacha ko'rsatkich	Moda
1.	Men talabalarimni turli manbalardan olingan ma'lumotlarni sintez qilishga undayman.	1.23	2.91	3
2.	Men talabalarni taxminlar va bashoratlar berishga (masalan, lug'at ma'nolari yoki hikoya yakuni haqida) undayman.	1.45	2.85	2
3.	Men talabalarimdan o'qish yoki tinglash orqali tanishgan matni baholashlarini so'rayman.	1.26	3.10	3
4.	Yangi dalillar paydo bo'lganda o'z fikrimni o'zgartirishga tayyor ekanligimni bildirib boraman.	0.92	3.21	3
5.	Men talabalarimni o'z fikrlarini erkin ifoda etishga va o'y-xayollarini ochiqcha bayon qilishga undayman.	1.00	3.28	4
6.	Men talabalarimga bilimning nisbiy va o'zgaruvchan tabiatiga doir misollarni ko'rsataman.	1.02	2.89	3
7.	Men talabalarimni OAVlari orqali tarqatilgan ma'lumotlarni tahlil qilishga o'rgataman.	0.89	3.12	3
8.	Men talabalarni kashf qilish va xulosa chiqarish jarayoni orqali yo'naltirib boraman.	0.86	3.19	3

9.	Men talabalarimdan yaxshi yozilgan matnning xususiyatlarini tahlil qilishlarini soʻrayman.	0.84	3.21	3
10.	Men talabalarimni aniq javoblar berishga oʻrgataman (masalan, javoblarni tekshirish va tasdiqlashni soʻrayman).	0.75	3.83	4
11.	Men talabalarni masalani kengroq nuqtayi nazardan koʻrib chiqishga undayman (masalan, “bu muammo konservativ, zamonaviy, diniy va boshqa nuqtayi nazardan qanday koʻrinishi mumkin?” deb soʻrayman).	0.90	3.28	3
12.	Men talabalarimni mantiqiy javoblar berishga oʻrgataman (masalan, “bu xulosa qanday qilib shundan kelib chiqdi?” deb soʻrayman).	0.93	3.69	4
13.	Men talabalarni oʻz javoblarini dalillar bilan asoslashga undayman.	1.07	3.73	4
14.	Men talabalarimga shunday savollar beramanki, ular maʼlumotni tahlil qilish, qoʻllash va baholash kabi yuqori darajadagi fikrlash koʻnikmalarini ishlatishni talab qiladi.	0.99	3.64	4
15.	Men talabalarimni bogʻliq tushunchalar va gʻoyalar oʻrtasida bogʻlanishlar yaratishga undayman.	0.93	3.44	3
16.	Men talabalarni muammoni boshqa talabalar yoki guruh bilan muhokama qilishga undayman.	1.11	3.87	4

Izoh: 5 – Har doim; 4 – Tez-tez; 3 – Baʼzan; 2 – Kamdan kam; 1 – Hech qachon.

Shuningdek, respondentlarning eng kam qoʻllaydigan amaliyotlar qatori – talabalardan turli manbalardan olingan maʼlumotlarni sintez qilishga oʻrgatishga, taxminlar va bashorat qilishga (masalan, lugʻat maʼnolari yoki hikoya yakuni haqida) undash hamda talabalarga bilimning nisbiy va oʻzgaruvchan tabiatga egaligiga doir misollarni koʻrsatishga kamroq eʼtibor qaratishlari aniqlandi. Demak, respondentlar tanqidiy fikrlashning asosiy elementlari boʻlgan maʼlumotlarni tahlil va sintez qilish hamda maʼlumotlar oqimida bir qarashning boshqa faktlar taʼsiri ostida oʻzgaruvchanlik xususiyatiga ega ekanligini oʻrgatishga kamroq eʼtibor qaratishadi. Vaholanki, samarali tanqidiy fikrlashga erishish uchun tahlil qilish, yaʼni fikrlar, dalillar va mulohazalarni tarkibiy jihatdan koʻrib chiqish hamda sintez qilish – ularni yangidan birlashtirib xulosa chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi [Bloom et al., 1956; Ennis, 1985; Mushtavinskaya, 2009].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotning mazkur bosqichida tajriba maydonlari sifatida tanlangan OTMlarida talabalarda tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan shart-sharoitlar, maqsad va vazifalar hamda professor-oʻqituvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan tashabbuslar muayyan darajada yoʻlga qoʻyilgani kuzatildi. Shuningdek, institutsional meʼyoriy hujjatlarda ham tanqidiy fikrlashga nisbatan ijobiy yondashuv mavjudligi qayd etildi.

Biroq ayrim hollarda oʻqituvchilarni zarur resurslar bilan taʼminlash hamda ularni mazkur sohada malakali tayyorlovdan oʻtkazishga yetarli eʼtibor qaratilmayotgani aniqlandi. Tanqidiy fikrlashni bir yoki ikki fan doirasidagina emas, balki tegishli taʼlim yoʻnalishlarining malaka talablarida alohida kompetensiya sifatida mustahkamlash,

uni quyi bosqichlarda izchil rivojlantirish va bu jarayonni fanlarning o'quv dasturlarida aniq va tizimli aks ettirish zarurati mavjud.

Keyingi yillarda mamlakatimizda, ayniqsa oliy ta'lim sohasida, ta'lim islohotlari orqali talabalar uchun XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ular orasida tanqidiy fikrlash eng dolzarb va ustuvor kompetensiyalardan biri sifatida ajralib turadi. Tadqiqot davomida olib borilgan hujjatlar tahlili hukumat qarorlarida hamda me'yoriy hujjatlarda tanqidiy-tahliliy fikrlashni rivojlantirish masalasi dolzarb kun tartibiga chiqayotganini ko'rsatdi. OTMLarining malaka talablari va fan dasturlarida ham ushbu ko'nikmaga yetarli darajada e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, professor-o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashga oid zamonaviy yondashuv va qarashlar shakllanmoqda.

Shunga qaramay, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida ayrim to'siq va muammolar hanzu saqlanib qolmoqda. Bu esa ushbu yo'nalishda tizimli yondashuvni davom ettirish, zamonaviy metodikalarni amaliyotga tatbiq etish va resurslar bilan ta'minlashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-637-sonli Qonuni. (2020-yil 23-sentabr). Ta'lim to'g'risida. *Lex.uz*'da. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli Farmoni. (2019-yil 8-oktabr). O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. *Lex.uz*'da. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-sonli qarori. (2017-yil 20-aprel). Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. *Lex.uz*'da. <https://lex.uz/docs/-3171590>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-345-sonli qarori. (2024 yil 30-sentabr). O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. *Lex.uz*'da. <https://lex.uz/docs/-7132752>.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-157-sonli qarori. (2024-yil 27-mart). Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. *Lex.uz*'da. <https://lex.uz/uz/docs/-6854214>.
6. Abrami, P.C., Bernard, R.M., Borokhovski, E. (2015). Strategies for Teaching students to think critically: A meta-analysis. *Review of Educational Research*, 85(2), 275–314.
7. Bailin, S., Case, R., Coombs, J.R., & Daniels, L.B. (1999). Conceptualizing critical thinking. *Journal of Curriculum Studies*, 31(3), 285–302. <https://doi.org/10.1080/002202799183133>.
8. Barbuto, J.E. (2000). Developing a leadership perspective in the classroom. *Journal of Adult Development*, 7(3), 161–169.
9. Barnes, C.A. (2005). Critical thinking revisited: Its past, present, and future. *New Directions for Community Colleges*, 130, 5–13. <https://doi.org/10.1002/cc.191>.
10. Bloom, B.S., Engelhart, M.D., Furst, E.J. (1956). *Taxonomy of educational objectives: Handbook I: Cognitive domain*. New York: David McKay Company.
11. Bowen, G.A. (2009). Document analysis as a qualitative research method. *Qualitative Research Journal*, 9(2), 27–40. <https://doi.org/10.3316/QRJ0902027>.
12. Brookfield, S.D. (2012). *Teaching for critical thinking: Tools and techniques to help students question their assumptions*. San Francisco, CA: Jossey-Bass.
13. Burbach, M.E., Matkin, G.S., & Fritz, S.M. (2004). Teaching critical thinking in an introductory leadership course utilizing active learning strategies: A confirmatory study. *College Student Journal*, 38(3), 482–493.

14. Davies, W.M. (2006). An 'infusion' approach to critical thinking: Moore on the critical thinking debate. *Higher Education Research & Development*, 25(2), 179–193. <https://doi.org/10.1080/07294360600610420>.
15. del Bueno, D. (2005). A crisis in critical thinking. *Nursing Education Perspectives*, 26(5), 278–282.
16. Elder, L. (2005). Critical thinking as the key to the Learning College: A professional development model. *New Directions for Community Colleges*, 130, 39–48. <https://doi.org/10.1002/cc.194>.
17. Ennis, R.H. (1985). A logical basis for measuring critical thinking skills. *Educational Leadership*, 43(2), 44–48.
18. Facione, P.A. (2011). Critical thinking: What it is and why it counts. *Insight Assessment*, 1(1), 1–23.
19. Fraenkel, J.R., Wallen, N.E., & Hyun, H.H. (2012). *How to design and evaluate research in education* (8th ed.). New York, NY: McGraw-Hill.
20. Gelder, T. van. (2005). Teaching critical thinking: Some lessons from cognitive science. *College Teaching*, 53(1), 41–48. <https://doi.org/10.3200/CTCH.53.1.41-48>.
21. Halpern, D.F. (2013). *Thought and knowledge: An introduction to critical thinking* (5th ed.). New York: Psychology Press.
22. Ikuenobe, P. (2001). Questioning as an epistemic process of critical thinking. *Educational Philosophy and Theory*, 33(3–4), 325–341. <https://doi.org/10.1111/j.1469-5812.2001.tb00274.x>.
23. Jones, A. (2004). Teaching critical thinking: an investigation of a task in introductory macroeconomics. *Higher Education Research & Development*, 23(2), 167–181. <https://doi.org/10.1080/0729436042000206645>.
24. Kennedy, M., Fisher, M.B., & Ennis, R.H. (1991). Critical thinking: Literature review and needed research. In L.Idol & B.F. Jones (Eds.), *Educational Values and Cognitive Instruction: Implications for Reform* (Vol. 2, pp. 11–40). Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
25. Klarin, M.V. (2016). *Innovatsionnye modeli obucheniya: Issledovanie mirovogo opyta*. Moskva: Literaturnaya ucheba.
26. Kornilova, T.V., & Smirnov, S.D. (2011). *Metodologicheskie osnovy psikhologii*. Moskva: Izdatel'stvo Yurayt.
27. Cottrell, S. (2017). *Critical thinking skills: Effective analysis, argument and reflection* (3rd ed.). London: Macmillan International Higher Education.
28. Lipman, M. (1988). Critical thinking—What can it be?. *Educational Leadership*, 46(1), 38–43.
29. Lizzio, A., & Wilson, K. (2007). Developing critical professional judgement: the efficacy of a self-managed reflective process. *Studies in Continuing Education*, 29(3), 277–293. <https://doi.org/10.1080/01580370701419189>.
30. McGuinness, C. (1993). Teaching thinking: New signs for theories of cognition. *Educational Psychology*, 13(3–4), 305–316. <https://doi.org/10.1080/0144341930130308>.
31. Mushtavinskaya, I.V. (2009). *Tekhnologiya razvitiya kriticheskogo myshleniya na uroke i v sisteme podgotovki uchitelya*. Sankt-Peterburg: KARO.
32. Novikov, A.M., & Novikov, D.A. (2010). *Metodologiya nauchnogo issledovaniya*. Moskva: Librokom.
33. Osburn, W.J. (1932). Testing thinking. *Journal of Educational Research*, 27(1), 402.
34. Paul, R. (2005). The state of critical thinking today. *New Directions for Community Colleges*, 130, 27–38. <https://doi.org/10.1002/cc.193>.
35. Paul, R., & Elder, L. (2006). *Critical thinking: Tools for taking charge of your learning and your life* (2nd ed.). Upper Saddle River, NJ: Pearson Education.
36. Pithers, R.T., & Soden, R. (2000). Critical thinking in education: a review. *Educational Research*, 42(3), 237–249. <https://doi.org/10.1080/001318800440579>.

37. Siegel, H. (1980). Critical thinking as an educational ideal. *The Educational Forum*, 45(1), 7–23. <https://doi.org/10.1080/00131728009336046>.
38. Thompson, C. (2011). Critical thinking across the curriculum: Process over output. *International Journal of Humanities and Social Science*, 1(9), 1–7.
39. Tsui, L. (2002). Fostering critical thinking through effective pedagogy: Evidence from four institutional case studies. *The Journal of Higher Education*, 73(6), 740–763. <https://doi.org/10.1080/00221546.2002.11777179>.
40. Zeer, E.F. (2021). *Psikhologiya professional'nogo obrazovaniya* (2-e izd., ispr. i dop.). Moskva: Izdatel'stvo Yurayt.
41. Zohar, A. (1999). Teachers' metacognitive knowledge and the instruction of higher order thinking. *Teaching and Teacher Education*, 15(4), 413–429. [https://doi.org/10.1016/S0742-051X\(98\)00063-8](https://doi.org/10.1016/S0742-051X(98)00063-8).

REFERENCES

1. Law of the Republic of Uzbekistan No. LRU-637. (2020, September 23). On education. In *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-5847. (2019, October 8). On the approval of the concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030. In *Lex.uz*. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>.
3. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PR-2909. (2017, April 20). On measures for the further development of the higher education system. In *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-3171590>.
4. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PR-345. (2024, September 30). On measures for the further improvement of the national qualifications system of the Republic of Uzbekistan. In *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-7132752>.
5. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. RCM-157. (2024, March 27). On measures to improve the procedure for developing and implementing state educational standards and state educational requirements. In *Lex.uz*. <https://lex.uz/uz/docs/-6854214>.
6. Abrami, P.C., Bernard, R.M., Borokhovski, E. (2015). Strategies for Teaching students to think critically: A meta-analysis. *Review of Educational Research*, 85(2), 275–314.
7. Bailin, S., Case, R., Coombs, J.R., & Daniels, L.B. (1999). Conceptualizing critical thinking. *Journal of Curriculum Studies*, 31(3), 285–302. <https://doi.org/10.1080/002202799183133>.
8. Barbuto, J.E. (2000). Developing a leadership perspective in the classroom. *Journal of Adult Development*, 7(3), 161–169.
9. Barnes, C.A. (2005). Critical thinking revisited: Its past, present, and future. *New Directions for Community Colleges*, 130, 5–13. <https://doi.org/10.1002/cc.191>.
10. Bloom, B.S., Engelhart, M.D., Furst, E.J. (1956). *Taxonomy of educational objectives: Handbook I: Cognitive domain*. New York: David McKay Company.
11. Bowen, G.A. (2009). Document analysis as a qualitative research method. *Qualitative Research Journal*, 9(2), 27–40. <https://doi.org/10.3316/QRJ0902027>.
12. Brookfield, S.D. (2012). *Teaching for critical thinking: Tools and techniques to help students question their assumptions*. San Francisco, CA: Jossey-Bass.
13. Burbach, M.E., Matkin, G.S., & Fritz, S.M. (2004). Teaching critical thinking in an introductory leadership course utilizing active learning strategies: A confirmatory study. *College Student Journal*, 38(3), 482–493.
14. Cohen, L., Manion, L., & Morrison, K. (2017). *Research methods in education* (8th ed.). London: Routledge.
15. Cottrell, S. (2017). *Critical thinking skills: Effective analysis, argument and reflection* (3rd ed.). London: Macmillan International Higher Education.
16. Davies, W.M. (2006). An 'infusion' approach to critical thinking: Moore on the critical thinking debate. *Higher Education Research & Development*, 25(2), 179–193. <https://doi.org/10.1080/07294330600571111>.

- org/10.1080/07294360600610420.
17. del Bueno, D. (2005). A crisis in critical thinking. *Nursing Education Perspectives*, 26(5), 278–282.
 18. Elder, L. (2005). Critical thinking as the key to the Learning College: A professional development model. *New Directions for Community Colleges*, 130, 39–48. <https://doi.org/10.1002/cc.194>.
 19. Ennis, R.H. (1985). A logical basis for measuring critical thinking skills. *Educational Leadership*, 43(2), 44–48.
 20. Facione, P.A. (2011). Critical thinking: What it is and why it counts. *Insight Assessment*, 1(1), 1–23.
 21. Fraenkel, J.R., Wallen, N.E., & Hyun, H.H. (2012). *How to design and evaluate research in education* (8th ed.). New York, NY: McGraw-Hill.
 22. Gelder, T. van. (2005). Teaching critical thinking: Some lessons from cognitive science. *College Teaching*, 53(1), 41–48. <https://doi.org/10.3200/CTCH.53.1.41-48>.
 23. Halpern, D.F. (2013). *Thought and knowledge: An introduction to critical thinking* (5th ed.). New York: Psychology Press.
 24. Ikuenobe, P. (2001). Questioning as an epistemic process of critical thinking. *Educational Philosophy and Theory*, 33(3–4), 325–341. <https://doi.org/10.1111/j.1469-5812.2001.tb00274.x>.
 25. Jones, A. (2004). Teaching critical thinking: an investigation of a task in introductory macroeconomics. *Higher Education Research & Development*, 23(2), 167–181. <https://doi.org/10.1080/0729436042000206645>.
 26. Kennedy, M., Fisher, M.B., & Ennis, R.H. (1991). Critical thinking: Literature review and needed research. In L.Idol & B.F. Jones (Eds.), *Educational Values and Cognitive Instruction: Implications for Reform* (Vol. 2, pp. 11–40). Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
 27. Klarin, M. (2016). *Innovative models of education: A study of global experience*. Moscow: Literary Studies.
 28. Kornilova, T.V., & Smirnov, S.D. (2011). *Methodological foundations of psychology*. Moscow: Yurayt Publishing.
 29. Lipman, M. (1988). Critical thinking—What can it be?. *Educational Leadership*, 46(1), 38–43.
 30. Lizzio, A., & Wilson, K. (2007). Developing critical professional judgement: the efficacy of a self-managed reflective process. *Studies in Continuing Education*, 29(3), 277–293. <https://doi.org/10.1080/01580370701419189>.
 31. McGuinness, C. (1993). Teaching thinking: New signs for theories of cognition. *Educational Psychology*, 13(3–4), 305–316. <https://doi.org/10.1080/0144341930130308>.
 32. Mushtavinskaya, I.V. (2009). *The technology of developing critical thinking in the classroom and in teacher training*. Saint Petersburg: KARO.
 33. Novikov, A.M., & Novikov, D.A. (2010). *Methodology of scientific research*. Moscow: Librokom.
 34. Osburn, W.J. (1932). Testing thinking. *Journal of Educational Research*, 27(1), 402.
 35. Paul, R. (2005). The state of critical thinking today. *New Directions for Community Colleges*, 130, 27–38. <https://doi.org/10.1002/cc.193>.
 36. Paul, R., & Elder, L. (2006). *Critical thinking: Tools for taking charge of your learning and your life* (2nd ed.). Upper Saddle River, NJ: Pearson Education.
 37. Pithers, R.T., & Soden, R. (2000). Critical thinking in education: a review. *Educational Research*, 42(3), 237–249. <https://doi.org/10.1080/001318800440579>.
 38. Thompson, C. (2011). Critical thinking across the curriculum: Process over output. *International Journal of Humanities and Social Science*, 1(9), 1–7.
 39. Tsui, L. (2002). Fostering critical thinking through effective pedagogy: Evidence from four institutional case studies. *The Journal of Higher Education*, 73(6), 740–763. <https://doi.org>

/10.1080/00221546.2002.11777179.

40. Zeer, E.F. (2021). *Psychology of vocational education* (2nd ed., revised and expanded). Moscow: Yurayt Publishing.
41. Zohar, A. (1999). Teachers' metacognitive knowledge and the instruction of higher order thinking. *Teaching and Teacher Education*, 15(4), 413–429. [https://doi.org/10.1016/S0742-051X\(98\)00063-8](https://doi.org/10.1016/S0742-051X(98)00063-8).